

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYA**

Toshkent – 2024

Dilshodova D.D. O'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish va bilimlarni o'zlashtirishda interfaol o'qitish usullarning o'rni	96
Rustamov Sh.Sh. Talabalar innovatsion kompetenligini rivojlantirishning ijtimoiy - psixologik asoslari.....	100
Sherqo'ziyeva D.A., Umarova Z.A. Logopedik mashg'ulotlar uchun foydali onlayn platformalar.....	104
Rustamova M.I., Umarova Z.A. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati.....	106
Umarova Z.A. O'zbekiston – 2030 strategiyasini amalga oshirishda talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish masalasi	109
Abdugafforova N.F. Exploring the role of motivation in english language learning	112
Safarova Z. Case method in teaching pedagogical approach.....	115
Валиева Н.З. Роль женщин в науке как фактор повышения научного потенциала в новом Узбекистане	118
Usmonov M.T. Technology using robotrack IDE Software	121
Marasulova D. N., Tilonboyeva D.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o'rgatishning lingvopsixologik xususiyatlari.....	124
Maxmudaliyeva M. M., Shodmonov R.G'. Xalqaro grantlar yutish va ularning ahamiyati.....	128
Rahmatullayeva M., Shodmonov R.G'. BMT tashkiloti va uning dunyo hamjihatidagi ro'li.....	135
Nasrillayeva M.A., Shodmonov R.G'. Topik haqida tushuncha.....	138
Asqarova F., Shodmonov R.G'. Ko'p tillarni o'rganish haqida.....	141
Iskandarova N.Q., Shodmonov R.G'. Bilingualismning afzalliklari: ikki yoki undan ko'p tillarni bilishning insonning kognitiv va kulturologik ko'nikmalari bo'yicha	143
Erkinova R. E., Shodmonov R.G'. Yangi tilni o'rganish metodikasi	146
Shukurova M.Z., Shodmonov R.G'. Yunesko:tashkil topishi va istiqboli.....	148
Omondullayeva D., Shodmonov R.G'. Til o'rganish va turizm.....	152
Norimbatov D.Q., Shodmonov R.G'. IELTS and TOEFL: similarities and differences sides.....	155
Xoliqberdiyeva M.A., Shodmonov R.G'. Nega yoshlarimiz ielts va ceft olishga intilmoqdalar?	160
G'anijonova D. G', Shodmonov R.G'. Hozirgi vaqtda yoshlar nega sat imtihonini topshirib, xorijda o'qishni xohlayabdi?	163

ikkinchi tildagi qofiyali she'r, qo'shiqni, harakatli o'yinni yaxshi o'zlashtiradi va uning hissiyotlariga ta'sir etgani tufayli bu xotirasida umrbod saqlanib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-4884-son. 2020-yil 6-noyabr. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020-y., 07/20/4884/1484-son.

2. Ushinskiy K. D. Tanlangan pedagogik asarlar. Tarbiya va ta'lim masalalari. O'zbekiston SSR davlat o'quv-pedagogika nashriyoti 1959,- B.243. -465b.

3. Voxidov M. Bolalar psixologiyasi. — T.: “O'qituvchi”, 1982. — 120 b.

4. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi., - T.: 2008. - B. 79-80.

5. Выгодский Л. С. Психология развития как феномен культуры / Под ред. М.Г. Ярошевского. — М.: Институт практической психологии; Воронеж: НПО “МОДЭК”, 1996. — 512 с

6. Sattorov.T. Bo'lajak chet tili o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi (ingliz tili materialida). TDYuI · – T., 2003. — 191 b.

7. Qodirova F.R. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. — T.: O'qituvchi, 1997. — B.8. - 185 b.

8. Климентенко А.Д., Миролюбов А.А. Теоретические основы методики обучения иностранным языкам в средней школе. - М.: Педагогика, 1981. — 456 с.

9. Akbarova Sh.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o'rgatish metodikasi. Diss...ped. fan. bo'yicha falsafa. dokt. — T., 2020. - 202 b.

10. Борисова Л.Н., Лашина Н.А. Обучение иноязычному говорению на основе песенного материала // Лингводидактические проблемы обучения иностранным языкам: Межвузовский сборник научных статей./ Под ред. Л.Н. Борисовой. Вып. 2. — Белгород, 2003. — С. 27.

11. Солдотенко К.Ю Творческий подход к организационной работе педагогов с семьей в процессе обучения старших дошкольников английскому языку. //Искусство и образование. 2018 г., с.148-153.

XALQARO GRANTLAR YUTISH VA ULARNING AHAMIYATI

Maxmudaliyeva Madina Muhammadaliyevna¹

*¹Xalqaro Nordik universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi
1-kurs 1-XT-23 guruh talabasi*

Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li²

*²Xalqaro Nordik universiteti doktoranti
r.shodmonov@nordicuniversity.org*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro grantlar, ularni yutish strategiyalari, ariza topshirish uchun kerakli hujjatlar va ularning ahamiyati yoritiladi va bugungi kunda grantlarni qo'lga kiritish bo'yicha talabalar ko'rsatkichlarini ochib beriladi.

Kalit so'zlar: scholarship, motivatsion xat, tarjimayi xol, tavsiyanoma, grant, stipendiya, til sertifikati, xalqaro tashkilotlar, chegirma, diplom/baholar, ielts.

Yoshlar masalasi har bir davlat uchun, shu jumladan O'zbekiston uchun ham eng muhim yo'nalish hisoblanadi. Chunki biz qo'yayotgan qadam, amalga oshirayotgan islohotlarimiz o'z natijasini berishi uchun harakatni yoshlarni qo'llab-quvvatlashdan boshlashimiz lozim. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham yoshlar masalasiga oid ko'plab reja va maqsadlar oldimizga qo'yildi. Bugungi kunda yoshlarning grant yutishga bo'lgan ishtiyoqi kundan kunga tobora ortib bormoqda. Bu stipendiyalar talabalarga kollej diplomini to'lashda yordam berish uchun moliyaviy yordam beradi. Scholarship inglizcha so'z bo'lib, o'zbekchada to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa "olimlik" deb tarjima qilinib qoladi. Asl ma'nosi esa, o'qishga bo'lgan chegirmani anglatadi, ya'ni talabalar o'qish davrida ularning xarajatlari uchun, baholaridan kelib chiqqan holda davlat yoki universitet tomonidan ajratiladigan chegirma hisoblanadi. Ushbu mablag'lar talabalarga boshqa yo'l bilan kirish imkoni bo'lmagan ta'lim olish imkonini beradi.

Grantlar ko'plab talabalar uchun moliyaviy yordam bo'lishdan ko'ra uzoqroqqa boradi. Ular munosib talabalarni oliy ma'lumot olish qobiliyati bilan taqdirlaydilar. Buning avzalligi shundaki, bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanib, grantlarni qo'lga kiritgan yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilib, chet elda ta'lim olish, yashash va o'qish davrida ularning xarajatlari uchun chegirmalar ajratiladi va ular ortiqcha tashvishlarsiz bor fikrini ilm olishga jamlaydi va e'tiborini faqatgina ta'lim olishga qaratadi.

Bu imkoniyatlar esa ularning sifatli ta'lim olishini ta'minlaydi. Kelajakda o'z ishining ustasi, yetuk mutaxassis bo'lishni istagan yoshlar orasida chet elda o'qishni istamagan kishi topilmasa kerak. Aksariyat yoshlar hech qachon chet elda bo'lmagani tufayli, bizning mamlakatimizda grant haqida gap ketganda faqatgina davlat tomonidan ajratiladigan grantni tushungani bois bilimi kuchlilarda ham chet elda grant asosida o'qish tartiboti haqida tugal tushuncha va u asosida o'qish uchun qanday yo'l tutilsa to'g'ri bo'lishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lmaydi va chet elda o'qish imkoniyatlarini qo'ldan boy berishadi.

Biror to'liq grant haqida ma'lumot olganimizda, uni yutib oladigan odamlar ko'p tillarni biladigan, har xil loyihalar qilib yurgan, til sertifikatlardan yuqori ballga ega bo'lgan, o'ziga ishongan yoki dunyoni o'zgartirib yuborishga bel bog'lagan shaxs sifatida tasavvur qilishimiz tabiiy xol. Ya'ni biz o'ylaymizki, eng kamida ijtimoiy jihatdan faol va baholari a'lo bo'lgan odamlar grant uchun munosib tuyuladi. Aslida esa grantlar faqat a'lochi yoki faol odamlar uchun degani emas. Darhaqiqat, juda ko'p grant dasturlari talablarida aynan shunga o'xshash sifatlar belgilab qo'yilgan bo'ladi, ya'ni yaxshi grantlar yetakchi, a'lochi va aniq maqsadlarga ega bo'lgan, ijtimoiy faol nomzodlarga berilishi to'g'ri.

Ammo grant beruvchi tashkilot umidli nomzodni biz tasavvur qilgandan ko'ra boshqacharoq tasavvur qiladi. Faol nomzod har doim ham biz o'ylagandek, 2 ta

ilmiy maqola yozib, 3 ta konferensiya yoki 5 ta almashinuv dasturida qatnashib qo'ygan bo'lavermaydi. Ko'plab grant dasturlarida kutilmagan yutuqlarga erishgan va favqulodda qobiliyatlarga ega insonlarni emas, balki chin dildan, chin ishtiyoq bilan o'z ustida sidqidildan ishlayotgan, bu borada o'z orzulariga berilgan, aniq bir maqsadi bo'lgan va o'z fikriga ega bo'lgan insonlarni mo'ljal qilib oladi.

Grant ajratuvchi universitet va tashkilotlar hali katta yutuqlarga erishmagan bo'lsa-da, biror ijobiy ishni amalda boshlab, biroz siljish qilgan nomzodlarga ham grant berishadi. Ular insonning inson ekanini yaxshi tushunishadi. Universitetni "4" baho bilan tamomlab, biror tashkilotda 2,3 yil ishlagan, ba'zi qatnashish qiyin bo'lmagan konferensiyalarda faol ishtirok etib, courserada ba'zi sertifikatlarni olib qo'ygan odam yutib ketadi. Ko'p hollarda, grant uchun yetarli bo'lgan buyuklik darajasi tasavvur qilgandan ancha past bo'lishi mumkin.

Albatta, ajoyib grantlarni oddiy odamlar ham yuta oladi. Bir paytlar kursdoshlarimdan biri AQSH da o'qish uchun barcha xarajatlari qoplanadigan grantni yutib olganida hayron qolgan edik. Biz bir universitetda o'qiganmiz, u ham bizga o'xshagan odam, biz ham shunday baholar olganmiz, uni aqli yetgan narsalarga bizning ham aqlimiz yetardi-ku va u aytarli biror muhim ish ham qilmagan, undan salohiyatli insonlar ham tiqilib yotipti, lekin u eng yaxshi grantlardan birini yutibdi, nahotki, bizdaka insonlar ham shunday "daxshat" grantlarni yuta olsa-ya deb o'ylaganmiz. Qarang, qanday ajoyib grant, ilm olish uchun qancha imkoniyatlar yaratib berilgan hatto biletingizgacha sotib olib beradi.

Qabul ko'rsatkichi foizi past bo'lsa, baholar a'lo bo'lmasa, umrida biror foydali, ijtimoiy ahamiyatga ega ish qilmagan bo'lsa va mamlakatda bu o'rin uchun qancha yoshlar qatnashishiga qaramay, uni qo'lga kiritishga intilish lozim. Ular ham yoshlardan PhD darajasidagi olimning natijalarini kutmaydi. Albatta, aqlli odamlar ko'p ammo grantlar ularning ichida ruhiyati balandlargagina nasib qiladi. Buning uchun, avvalo, chin dildan harakat qilib, bilim olish, yaxshi g'oyalarga topish, amalda kichkina bo'lsa ham qadam tashlash, chin dildan izlanish kerak. Eng muhimi, bu harakatlarning natijasini boshqalar bilan solishtirmaslik kerak. Ko'plab grantlar ayni vaqtda katta yutuqlarga erishmagan bo'lsa ham, dunyoqarashi keng, turli reja va g'oyalarga ega, o'ziga ishongan nomzodlarga nasib qiladi. Xullas, hujjat topshirishga erinmasdan va "yutolmayman" deya qo'rqmasdan, shunchaki o'z vaqtida ariza berish kerak. Aks holda, buni o'zimizdek oddiy odam yutib ketaveradi.

Grantlar nega mavjud ekanligini unutmashimiz kerak chunki grant berayotgan universitet yoki tashkilotlar xayriya uchun pul ajratadigan muassasalar emas. Ular raqobatchilardan orqada qolmaslik, mavqelarini oshirish va bozor talabiga javob berishda doimiy ter to'kadilar, bosimga uchraydilar. Agar bunday vaziyatda ular ham o'zlari yaxshi tanimagan bir necha yoki yuz yoshlarga grant ajratgan va har biriga ma'lum miqdorda mablag' berayotgan bo'lsa, buning o'z sabablari bo'ladi. Grant ajratgan universitet yoki tashkilot iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlashdan tashqari, o'zi olib borayotgan ishlar, masalan, tadqiqot, turli jarayonlarni yaxshilash yoki o'qitish, sifatini oshirish, yaxshi kadrlarni saralab olish yoki obro'sini mustahkamlash kabi, o'zlari uchun manfaatli maqsadlar bilan grand dasturlarini e'lon qiladilar.

Grantlarni esa, kelajakda foydali ishlar qilishi ehtimoli baland bo'lgan, universitetni ajoyib yutuqlar bilan tamomlashi kutilayotgan va unga reklama va obro' bo'ladigan nomzodlarga belgilashadi. Agarda biror muassasa, masalan, bank yoki boshqa tashkilot tomonidan ajratilsa, kelajakda yaxshi kadr bo'lib yetishishi ehtimoli yuqori nomzodlar saralab olinadi. Shuning uchun, biror grant dasturiga hujjat topshirishdan oldin, uni kim berayotgani, qaysi tashkilot tomonidan yoki muassasa nima ish bilan shug'ullanishi haqida to'liq tanishib chiqish lozim. Agar universitetni o'zi ajratsa, uni saytida eng ko'p ko'tariladigan mavzular, missiyasi hamda boshqa ma'lumotlari bilan batafsil tanishib chiqish muhim chunki ba'zi grantlar ma'lum maqsad va mavzuga ega bo'ladi, ya'ni grant beruvchining maqsadlari va mafkurasiga mos nomzodlar saralab olinadi. Hujjat topshirayotganda, grant ajratuvchi muassasaga qanday foydasi tegishini o'ylashi kerak.

Adabiyotlar sharhi.

Scholarshiylar turli ko'rinishlarda bo'ladi: Foizlar orqali beriladigan cholarshiylar, 100%, 80%, 50% yoki ba'zi universitetlarda homiy kompaniyalar tomonidan ma'lum bir o'quvchilarga har xil miqdorda scholarship ajratib beriladi va bundan tashqari, turli xil yutuqlar, mukofotlar orqali ham qo'shimcha scholarship berib boriladi. Hukumat grantlari va universitet tomonidan tashkil etilgan maxsus grantlar bugungi kunda eng ko'p tarqalgan grantlar hisoblanadi va qolgan grantlarga qaraganda manfaatli tomonlari ko'proq, ya'ni to'liq moliyalashtiriladi. Grantni qo'lga kiritganlar: oylik stipendiya bilan ta'minlanadi, ba'zi hollarda, bepul turar joy va oziq-ovqat bilan ham ta'minlanishadi, o'qish kontrakt to'lovidan ozod etiladi va safar, sug'urta va viza xarajatlari qoplab beriladi. Grant yutish uchun eng birinchi qilinadigan ish, grant haqida batafsil tanishib chiqish, qaanday grantga ariza topshiryapti, uning talablari qanaqa, dastur uchun belgilangan yosh, daraja, yo'nalishi to'g'ri kelishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Aslida, grant sohibi bo'lish qiyin emas, aksincha, ko'pchilik o'ylaganiga qaraganda ossonroq.

“Og'iz – bir, quloq – ikki, bir so'zlab, tingla qirq ikki”.¹ Daryo chopar, chaqqon topar degandek, qanchalik erta grant qidirishni boshlasa, shuncha tezroq uning sohibi bo'lishi hamda o'zini o'qishga yo'naltirishi mumkin. Ko'pgina fondler bir yil uchun bir marta “Deadline” e'lon qilishadi. Agar buni o'tkazib yuborsa, yana bir yil kutishga to'g'ri keladi va stipendiya beruvchiga har tomonlama mos kelsa ham, hujjatlarni kech topshirgani sababli rad javobini oladi va barcha harakatlar zoye ketadi. Shuning uchun muddatga e'tiborli bo'lib, o'tkazib yubormaslik lozim. Xullas, bozor qilgan och qolmas, yo'l tanigan esa kech qolmas. Tavsiyanoma va motivatsion xat tayyorlashda bularni ham hisobga olish kerak va bitta motivatsion xat yozib, unga salgina o'zgartirish kiritib, bir nechta grantga topshirib yubormaslik kerak.


Gavhar yerda yotmas (Agarda u gavhar bo'lsa). Grant sohibi bo'lishni kafolatlaydigan yana bir asosiy hujjatlardan biri bu - (CV) tarjimayi hol bo'lib, bu bizning o'zbek tilidagi tarjimayi holdan ancha farq qiladi, odatda bir yoki bir yarim sahifadan iborat bo'ladi. Bunda grant beruvchi jamg'armaga, o'zini presentatsiya qilish, ya'ni o'zini ko'rsata bilish kerak. CV tuzish jarayonida oddiylikka juda ham

¹ <https://grantlar.uz/blog/grant-yutish-uchun-nimalarga-etibor-qaratish-kerak-germaniya/>

katta e'tibor qaratish kerak, "hobby"ga e'tibor qaratish kerak va imkon qadar umumiylikdan qochish kerak chunki qabul komissiyasi qoliplangan umumiy fikrlarga o'rganib ketgan va shu sabab bunaqangi jumalarga eng kam e'tibor qaratishadi. Tarjimayi holni o'qish jarayonida zerikishlar va umumlashgan iboralar bo'lmasligi kerak chunki bu professionallik emas. Shunday holat bo'lmasligi uchun buni faqatgina o'zining nomidan, dunyoqarashidan kelib chiqib, fikrlarini ochiq va real yetkazib berish orqali bayon etish kerak. Qisqasi, qanday inson bo'lsa, shundayligicha ko'rsatib bergani ma'qul. Shuningdek, arizani bitta fondga emas, balki bir vaqtning o'zida, bir nechtasiga topshirsa bo'ladi ya'ni eplagan ikki oshar. Yo'lingni bilib, yo'ldosh qil, tenging bilib, tengdosh qil deganlaridek, grant sohibi bo'lish uchun, arizani taniqli va obro'li grantlarga topshirishni o'rniga, ayni vaqtdagi o'z statusiga mos keladigan fondlarga topshirish maqsadga muvofiq bo'ladi, ayniqsa, kichikroq, unchalik ham keng dovrug'i ketmagan grantni qo'lga kiritish imkoniyati yuqoriroq.

Mativatsion xat 2 sahifadan iborat insho bo'lib, unda asosan nomzod o'zining bilimi, salohiyati va yetakchilik qobiliyatlarini ochib bera olishi, maqsadlari bayon etilgan bo'lishi kerak va nega aynan shu yo'nalishga topshirayotgani, tanlangan universitetga nima bera olishi, kelajakdagi karyerasiga qanday manfaat keltirishi, grant uchun aynan nega shu nomzod tanlab olinishi kerakligi va bu dasturdan oladigan foydalari aniq va batafsil bayon etilgan bo'lishi kerak. Motivatsion xat, shaxsiy bayonot va shu kabilarni tayyorlashda ortiqcha kamtarlik qilmaslik kerak kerak, chunki erishgan yutuqlarni ko'rsatib bermaguncha boshqalar sezmasligi ham mumkin. Shunchaki, o'zida bor fazilatlar, sifatlar, qobiliyatlar, qo'lidan keladigan ishlar, bugungacga erishgan yutuqlarini chiroyli usulda ko'rsatib bera olish va grant beruvchi muassasaga qanday foydasi tegishi va nega aynan bu grant uchun munosibligini ochib berishi kerak. Keyingi hujjat bu tavsiyanoma bo'lib. universitet yoki ish joyidan nomzodni yaxshi tomonlarini ifodalab beruvchi tavsiya xati. Buning ahamiyati muhim, nomzodning dastur uchun qay darajada mos ekanligini sezish mumkin. Hech qachon boshqalarning ishini ko'chirib, plagiatga yo'l qo'ymaslik kerak. Osson ishning ohi bor deganlaridek, tekshiruv hay'at a'zolari buni darhol sezishadi va mukammal tayyorlanmagan arizalarni butunlay rad etishadi yoki ular birinchi yomon taassurot yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin, shuning uchun uni yuborishdan oldin yaxshilab tekshirib chiqish kerak.

Aytilgan so'z – otilgan o'q kabidir. Matndagi fikrlarni to'liq jamlamaganlik oqibatida kelib chiqadigan xatolar grant yutishni qiyinlashtiradi va ular buni shunchaki, ko'chirgan deb hisoblashadi. Ariza topshirish jarayonida juda ham keng tarqalgan xatolik: tugallanmagan hujjatlarni yuborishdir.



1-rasm. Grantlar yutish uchun topshiriladigan asosiy hujjatlar. Muallif ishi.

Diplom\Baholar - nomzodning akademik ko'rsatkichini ifodalab beruvchi hujjat. Ba'zi hollarda baho qandaydir rol o'ynashi mumkin. Deyarli barcha grant uchun ushbu hujjat so'ralsa-da, grant yutishda baholar juda muhim ahamiyatga ega emas, ya'ni baholari 90%, IELTS 8.0, lekin grant yuta olmagan talabalar oramizda juda ko'p. Shuning uchun agar baholar ko'ngildagidek bo'lmasa, hech ham ruhiyatni tushirmaslik va yanada harakat qilish kerak. Motivatsion xatda nega baholar a'lo emasligini arziqli sabab bilan izohlab o'tib ketsa, grantga qabul qilinishi mumkin. Bu degani o'qimasam ham bo'laveradi degani emas, albatta, baholar qancha yaxshi bo'lsa, yutish ehtimolingiz shuncha baland bo'ladi. Bildirish uchun bilish ham kerak. Stipendiya beruvchi ko'plab jamg'armalar, albatta, nomzod haqidagi ma'lumotlarni shu saytlar orqali bilishlari mumkin agarda ushbu ijtimoiy tarmoqlarda shu shaxs mavjud bo'lsagina va ushbu tarmoqlar siz haqingizda professional taassurotlarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Birinchi taassurot esa asosiy hisoblanadi, ayniqsa arizadagi rasm grant beruvchilar nigohini tortadi chunki bu orqali qanaqa inson ekanligini 40% bilib olish mumkin ekan. Google, StepStone, Xing, Linkdeln va Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlardan o'z foydangiz uchun foydalaning.


Odatda, ingliz tilidan IELTS kamida 6.0. TOEFL IBT 90 yoki boshqa ekvivalent daraja so'raladi lekin grant yutishda til bilish sertifikatining yuqori bo'lishi deyarli rol o'ynamaydi. Til sertifikati o'sha universitetda ta'lim olish, berilayotgan bilimlarni tushinish uchun yetarli bo'lsa, bo'lgani. Shuning uchun IELTS dan 7.0 olgan nomzodlar 8+ olishga harakat qilgandan ko'ra, maqsad va yo'nalishlarini aniq qilib, yaxshi motivatsion xat yozishlari maqsadga muvofiq.

Grant yutish uchun SAT, GRE/GMAT sertifikatlari talab etilmasligi mumkin, lekin ulardan yuqori ball olish dasturga qabul qilinish uchun ustunlik beradi. Grant yurishda yana bir muhim omil bu nomzodning ijtimoiy jihatdan faol bo'lishidir, chunki hamma grantlarning ortida jamiyat uchun foydali shaxs yetishtirish va o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish yotadi.

Har yili 1,7 milliondan ortiq stipendiyalar beriladi. Biroq, kollej talabalarining atigi 7 foizi stipendiya oladi. AQSh Ta'lim Departamenti har yili stipendiya uchun taxminan 46 milliard dollar ajratadi. 2 yillik institutlar uchun o'rtacha stipendiya 6,010 dollarga teng. O'rtacha 4 yillik kollejda davlat grantlari va stipendiyalarini birinchi marta olayotgan bakalavrlar har yili taxminan 14,890 dollar oladi. Tegishli hisobotlar orasida Moliyaviy yordam statistikasi | Kollej jamg'armasi statistikasi.

2-rasm. Oilaning daromad darajasi va davlat grand².

Kollejda o'qish narxi oshib bormoqda. Milliy ta'lim statistikasi markazi ma'lumotlariga ko'ra, 2008-2009-o'quv yilidan 2018-2019-o'quv yiligacha davlat kollejlari va universitetlarida o'qish, to'lovlar va to'lovlar 28 foizga oshgan. Xususiylar notijorat maktablarida kollej xarajatlari inflyatsiyaga moslashtirilgandan so'ng 19 foizga oshdi. O'sib borayotgan xarajatlarni qoplash qiyin bo'lishi mumkin. Grant dasturi, agar ehtiyojga asoslangan mukofot bo'lsa, FAFSAni to'ldirishingizni talab qilishi mumkin.



Grantlar ba'zi oilalar uchun moliyaviy bo'shliqni to'ldirishi mumkin. Ular talabalarga qoniqtirilmagan moliyaviy ehtiyojga ega bo'lganlarga yordam berishlari yoki qobiliyatga asoslangan bo'lishi mumkin. Odatda, talabalar stipendiyalarni to'lamasliklari mumkin. Salli Meyning hisobotiga ko'ra, har 10 oiladan 7 tasi (73%) 2019-2020 o'quv yili uchun kollej ta'limini to'lash uchun stipendiyadan foydalangan. 2018-2019 o'quv yilida 82% buni amalga oshirdi. Jami oilalarning 33 foizi grant va stipendiyalardan foydalangan. Bu ularga kollej uchun pul to'lashga yordam berdi. Ko'pgina talabalar ulardan o'qish, kitoblar yoki boshqa xarajatlarni

² <https://www.myscholarship.app/why-are-scholarships-important>

qoplash uchun foydalanishlari mumkin edi. Bu moliyaviy stressni engillashtirishga yordam beradi.³

Umumiy stipendiyalar statistikasi: har yili Qo'shma Shtatlarda 1,7 milliondan ortiq stipendiyalar va xususiy stipendiyalar beriladi (Dikler, 2020), kollej talabalarining 25 foizi stipendiya va grantlardan pul olgan (Salli Mey, 2021), har yili bakalavriat va magistratura talabalarini uchun taxminan 1,581,000 stipendiyalari mavjud (Scholly, 2020), biroq, har sakkizinchi kollej talabasidan faqat bittasi stipendiya oladi (Kantrowitz, 2019), grantga sazovor bo'lgan talabalarning 97 foizi 2,500 dollar yoki undan kamini oladi (Kantrovitz, 2020), bundan tashqari, talabalarning atigi 0,2 foizi 25,000 dollar yoki undan ko'p stipendiya oladi (Unigo, 2021), xususiy stipendiyalarga sazovor bo'lgan talabalarning 50% stipendiyalarni almashtirishni boshdan kechiradi. Shu bilan birga, maktablarning 62 foizi institutsional grantlarni, 55 foizi talabalar kreditlarini kamaytiradi va 24 foizi talabalar ishini kamaytiradi (Kantrowitz, 2021).

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash o'rinliki, hukumat grantlarining turlari ko'p. Imkoniyat, imtiyozlari ham anchagina. Shu bilan birga ushbu grantlarni yutish ham raqobat katta bo'lanib oson bo'lmaydi. Boshqa raqiblar ko'pdek tuyilsa ham o'z omad sinab ko'rishi kerak, gap nomzod raqobatchilardan kuchsizroq tuyilsa-da, grantning umumiy talablariga mos bo'lgan vaziyatlar haqida ketyapti. Tayyorgarlikni ertaroq boshlash tavsiya etiladi! Chet elda talaba hamyurtlarimizning aksariyati "Scholarship", ya'ni grantlar asosida o'qiydi. Chunki chet mamlakatlarida ta'lim olish qimmat va yashash ham o'qish uchun pul to'lashga ko'p o'zbek oilalarining qurbi yetmaydi. Shuning uchun chetda o'qishni niyat qilganlar, albatta, grant topish payida bo'lishadi.

Shunday ekan, doim maqsadni to'g'ri qo'yish va unga yetmaguncha harakatdan to'xtamaslik kerak. Grant yutib olsangiz, butun hayotingiz o'zgarib ketishi, kamida esa, mablag' tejab qolishingiz mumkin bo'ladi, shunday ekan biror grant dasturini ko'rsangiz va sohangizga mos kelsa, shunchaki hujjat topshirib qo'ying. Boshida yutolmaydigandek tuyilsa ham, ariza topshirib ko'rish kerak. O'zingizga o'zingiz rad javobini bermang va hech qachon taslim bo'lmang. Zero, oliy maqsad g'alabaga yetaklaydi!

BMT TASHKILOTI VA UNING DUNYO HAMJIYATIDAGI RO'LI

Rahmatullayeva Maryam¹

*¹Xalqaro Nordik universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi
1-kurs 1-XT-23 guruh talabasi*

Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li²

²Xalqaro Nordik universiteti doktoranti

³ <https://www.myscholarship.app/why-are-scholarship-important>